XALQ DEPUTATLARI IZBOSKAN TUMAN KENGASHI
QARORI

2023 - yil 3 - oktabr VI-45-65-1-22-K/23 Izboskan tumani hokimligi

2023 yilning 2-chorak davomida Izboskan tumani 1-son IIB hududida jinoyatchilikka qarshi kurashish, uni barvaqt oldini olish hamda sodir etilganlarini issiq izidan fosh etish borasida olib borilgan ishlar yuzasidan 1-son IIB boshlig‘i podpolkovnik D.Usmonovning hisoboti

Izboskan tumani ichki ishlar bo‘limi xodimlari tomonidan 2023 yil 6 oyi davomida tuman hududida jinoyatchilikka qarshi kurashish, uni oldini olish, sodir etilganlarini issiq izidan fosh etish, jamoat tartibini saqlash, terrorchilik qo‘poruvchilik harakatlari sodir etilishini oldini olish, yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash borasida bir qator profilaktik ishlar amalga oshirildi.

Jumladan;

1-son IIB hududida barcha yo‘nalishlar bo‘yicha jami 28 ta jinoyatlar sodir etilib, xar 10 ming axoli soniga nisbatan 6,2 tadan to‘g‘ri kelgan.

Shuningndek sodir etilgan jinoyatlarning 10 tasi jinoyat qidiruv yo‘nalishida, 6 tasi iqtisdiy sohasida va 12 tasi boshqa yo‘nalishlarda sodir etilgan jinoyatchilarni tashkil etgan.

Barcha yo‘nalishlar bo‘yicha sodir etilgan 28 ta jinoyatlar turlari bo‘yicha tahlil qilinganda 2 ta badanga yengil shikast yetkazish, 1 ta talonchilik, 2 ta o‘g‘irlik, 4 ta firibgarlik, 1 ta bezorilik, 3 tasi jabirlanuvchi tan-jarohati olgan yo‘l transport hodisalaridir.

Sodir etilgan jinoyatlar tasnifiga ko‘ra 1 tasi o‘ta og‘ir turdagi,
4 tasi og‘ir, 8 tasi uncha og‘ir bo‘lmagan hamda 15 tasi ijtimoiy xavfi katta bo‘lmagan jinoyatlarga bo‘linadi.

Hisobotga qo‘yilgan 28 ta jinoyatlardan 13 tasi *(jami jinoyatga nisbatan salmog‘i 46%)* oldini olish lozim bo‘lgan va 15 tasi *(jami jinoyatga nisbatan salmog‘i 54%)* xodimlar tashabbusi bilan aniqlangan jinoyatlardir.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan xolda ichki ishlar organiga, davlat va jamoat idoralari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari hamda tuman kengashi deputatlari tomonidan jinoyatlarning barvaqt oldini olish va huquqbuzarliklarga qarshi kurashish borasida ko‘rilgan chora-tadbirlarini samaradorligini oshirishda yaqin hamkorlikda ish olib borishlari zarurligi qayd etilib, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunning 6 va 24 moddalariga muofiq Xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI

1. Izboskan tuman ichki ishlar bo‘limi 1-son IIB huquq tartibot maskani profilaktika katta inspektori mayor D.Usmonovning 2023 yil 6 oyi davomida “Jinoyatchilikka qarshi kurashish” yuzasidan olib borilgan ishlar to‘g‘risidagi hisoboti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman hokimining o‘rinbosarlari hamda Xalq deputatlari Izboskan tuman Kengashi deputatlariga;

- aholi va ayniqsa yoshlar o‘rtasida huquqbuzarlik va jinoyatchilikka qarshi kurash bo‘yicha targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borish;

- fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, bandlikka ko‘maklashish va aholini ijtimoiy muhofaza qilish markazida aholini ijtimoiy muhofaza qilish to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga qat’iy amal qilinishi ustida jamoat nazoratini o‘rnatish;

- fuqarolarni, ayniqsa ayollar va voyaga yetmagan yoshlarni o‘z joniga qasd va suiqasd qilinishi olidini olish maqsadida fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, huquqni muhofaza qiluvchi idoralar, ta’lim va sog‘liqni saqlash muassasalari hamda hokimlik huzuridagi voyaga yetmaganlar bilan ishlari bo‘yicha komissiyasi bilan hamkorlikda ish olib borish;

- hududlarda jinoyatchilikka qarshi kurash va uning oldini olish borasidagi ishlar huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan hamkorlikda ish olib borish hamda amalga oshirilgan ishlarni mutasaddi rahbarlar ishtirokida muhokama etib borish topshirilsin.

3. Tuman hokimligi, huquqni muhofaza qilish idoralari hamda tegishli

tashkilot va muassasalar bilan hamkorlikda;

- har bir hududda yashash joyidan uzoq muddatga chiqib ketgan fuqarorlar, shuningdek fuqarolarni majburiy mehnatga jalb qilish bilan shug‘ullanayotgan shaxslarning ro‘yxatini olib, hudud profilaktika inspektorlari bilan axborot almashuvini yo‘lga qo‘yish;

- o‘sib kelayotgan avlodni hayotda munosib o‘rin egallashi, ularning odam savdosi jabrdiydalariga aylanishi oqibatlarini oldini olish borasida ta’lim muassasalari va mahallalarda tarbiyaviy-ahloqiy mavzularda davra suhbatlari va uchrashuvlar tashkil etish topshirilsin.

4. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilishni Xalq deputatlari tuman Kengashiining “Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha doimiy komissiya”si raisi A.Abdullev zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi **S.Ismoilov**